

BALOG‘AT ILMINING PAYDO BO‘LISH, RIVOJLANISH VA TAKOMILLASHUV JARAYONI

Oriental Universiteti 2-kurs magistranti

Zikiryayev Saidafzalxon

Annotatsiya. Arab tilini o‘rganish jarayonida, boshqa tillarda bo‘lgani kabi, fonetika va grammatika sohalariga oid asosiy ilmlar – sarf (morfologiya), nahv (sintaksis) hamda lug‘at ilmini mukammal o‘zlashtirish zarur hisoblanadi. Bu fanlarni egallash arab tilida sodda darajada muloqot qilish imkonini bersa-da, tilni chuqur anglash, nozik ma‘no qatlamlarini idrok etish va mukammal ravishda ifoda qilish uchun balog‘at ilmining qoidalarini puxta bilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Balog‘at qoidalari arab tilining ma‘naviy va estetik ruhiyatini to‘liq ochib beradi, so‘z va ma‘no o‘rtasidagi nozik bog‘liqliklarni namoyon etadi. Ushbu maqolada arab tilining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lgan balog‘at ilmining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari va takomil topish jarayoni qisqacha yoritiladi. Shuningdek, tarixiy sanalar hamda mazkur fan rivojiga salmoqli hissa qo‘shgan allomalar haqida ixcham ma‘lumot taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: Balog‘at ilmi, sarf, sintaksis, nahv, morfologiya, balog‘at qoidalari, lug‘at ilmlari.

Annotatsiya. Arabskiy yazyk, kak i drugie yazyki, trebuet dlya izucheniya sovershennogo osvoeniya fonetiko-grammaticheskix nauk, a imenno: sarf (sintaksis), nahv (morfologiya) i leksiki. Osvoenie etix nauk pozvolyaet otnositelno svobodno govorit na arabskom yazyke, odnako dlya sovershennogo vladeniya yazykom i glubokogo yego ponimaniya osoboe znachenie imeet xoroshee znanie pravil nauki balog‘at (ritoriki).

Pravila balog‘at polnostyu raskryvayut vnutrennyuyu suщnost i dux arabskogo yazyka. V dannoy state kratko izlagaetsya istoriya vzniknoveniya, razvitiya i sovershenstvovaniya nauki balog‘at kak odnogo iz vajneyshix razdelov arabskogo yazyka, a takje yeyo osnovnyye etapy. Takje privoditsya kratkaya informatsiya ob istoricheskix datax i lichnostyax, vnesshix znachitelnyy vklad v razvitie nauki balog‘at.

Klyuchevye slova: nauka balāgat, sarf, sintaksis, nahv, morfologiya, razdelы balāgata, leksikologiya.

Abstract. Learning the Arabic language, like learning other languages, requires thorough mastery of phonetic and grammatical sciences, namely *ṣarf* (syntax), *naḥw* (morphology), and vocabulary. Although mastering these sciences enables relatively simple communication in Arabic, a special role is played by a deep knowledge of the rules of *balāghah* (rhetoric) in achieving fluent speech and profound understanding of the language.

The rules of *balāghah* fully reveal the spirit and inner nature of the Arabic language. This article briefly presents the history of the emergence, development, and refinement of the science of *balāghah* as one of the most important branches of Arabic linguistics, along with its main stages. It also provides concise information about historical dates and individuals who made significant contributions to the development of the science of *balāghah*.

Keywords: science of *balāghah*, *ṣarf*, syntax, *naḥw*, morphology, branches of *balāghah*, lexicology.

Arab tili dunyo tillari orasida eng ko'p o'rganiladigan va hozirgacha faol ravishda o'rganilib kelayotgan tillardan biri hisoblanadi. U lug'at boyligi, har bir so'zning ma'noni ifodalashdagi betakror xususiyati, qoidalarining xilma-xilligi, shevalarining ko'pligi hamda bir so'zni turli uslublarda qo'llash imkoniyatlarining mavjudligi bilan mukammal til sifatida ajralib turadi.

Arab tilida to'g'ri va ravon mutola qilish uchun nahv fanini o'rganish zarur bo'lsa, fe'llar va so'z shakllarining holatini anglash uchun sarf fanini o'zlashtirish talab etiladi. Tildagi chuqur va ko'p qavatli ma'nolarni qisqa iboralar orqali ifoda qilish, shuningdek, bu ma'nolarni to'liq anglash uchun esa balog'at ilmini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Arab adabiyoti bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun ham arab tilining sarf, nahv hamda balog'at fanlari tarkibiga kiruvchi ma'oni, bayon va badi' kabi ilmlarni bilish qat'iy talab sifatida qo'yiladi. Mazkur fanlarni yetarli darajada

o'zlashtirmaslik asl matnlarni tahlil qilishda muayyan kamchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda yuqoridagi ilmlar chuqur o'rganilmasdan turib, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali oyat va hadislarni turlicha talqin qilish holatlari kengayib, butun dunyoda, jumladan islom olamida xatarli ziddiyatlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu kabi salbiy holatlarning oldini olishda balog'at tarkibiga kiruvchi ma'oniylar, bayon va badi' ilmlarini puxta o'rganish, balog'at olimlarining ilmiy merosini tadqiq etish hamda ularni amaliyotga tatbiq qilish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Balog'at ilmi tarkibida uch asosiy tarmoq — badi', bayon va ma'oniylar shakllangan. Qur'on morfologiyasi, sintaksisi va stilistikasiga oid masalalarning ilmiy qo'yilishi hamda ularning oyatlar asosida tahlil qilinishi faqat arab olimlari tomonidan emas, balki Turkiya, Pokiston, Germaniya, Fransiya, Gollandiya, Angliya va Rossiya olimlari tomonidan ham keng yoritilgan. Sharq Uyg'onish davri olimlari, jumladan, Movarounnaxr mutafakkirlari tomonidan balog'at ilmi qoidalari mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida ishlab chiqilgan.

Har bir ilmning fan sifatida shakllanishida muayyan tarixiy bosqichlar mavjud bo'lgani kabi, balog'at ilmining ham o'ziga xos rivojlanish bosqichlari mavjud. Dastlab mazkur fan "balog'at" nomi bilan yuritilmagan. U o'z-o'zidan mustaqil hisoblangan uchta ilm — ilmu ma'oniylar,¹ ilmu bayon² va ilmu badi'dan³ iborat bo'lgan. Tilshunos olimlar bu sohalarga, odatda, sarf-nahv va lug'atga oid asarlar yozib bo'lganlaridan keyingina murojaat qilganlar.

Hijratning ikkinchi asriga kelib, balog'at va uning tarkibiy qismlari borasida yangi ilmiy qarashlar shakllana boshladi.⁴ Ayniqsa, ilmu bayon sohasida ilk mustaqil

¹ Ilmul ma'oniylar - muqtazoi holga muvofiq keladigan arab lafzlarining holatlarini o'rgatadigan ilm.

² Ilmul ba'en – bir ma'noni dalolati ravshan bo'lgan bir necha yo'llar orqali keltirishni o'rgatadigan ilm.

³ Ilmul badi' – lafzning dalolatini ravshanligi va muqtazoi holga rioya qilib, jumlani go'zal tarzda keltirishni o'rgatadigan ilm.

⁴ Al-Xatib al-Qazviniy. Al-Iydox fi ulumil balog'a. Muhammad Abdulmun'im al-Xo'fajiy tahqiq qilgan nusxasi. Bayrut. Darul jayl. 1949. 1-juz. -B. 14.

asarlar paydo bo'ldi. Bu yo'nalishdagi dastlabki qadam Abu Ubaydaning "Majozul Qur'on" asari bilan qo'yilgani ta'kidlanadi.

Islomdan oldingi davrda yashagan shoirlar teran fikri, badiiy mahorati va ijodiy uslubiga qarab turli laqablar bilan atalar edi. Jumladan, al-muhalhil (yupqa qilib to'quvchi), al-muraqqish (rang-barang qilib bezovchi), al-musaqqib (yondiruvchi), al-munaxxil (elakdan o'tkazuvchi), al-mutanaxxil (elakdan o'tgan), al-afvax (keng og'izli, uzun tishli), an-nobig'a (iqtidorli, iste'dodli) kabi nomlar shu shoirlarning ijodiy xususiyatlarini ifoda etgan. Bu laqablar ularning so'zga ishlov berish mahorati, ma'noni nozik tarzda sayqallash qobiliyati va badiiy tafakkur darajasini belgilab bergan.

O'sha davrda she'rlar bir yil davomida sayqallanib, maxsus yig'inlarda o'qib eshittirilar edi. Bunday adabiy anjumanlar uchun ajratilgan joylar mavjud bo'lib, Makka yaqinidagi Ukoz bozori ular orasida alohida nufuzga ega bo'lgan. Ukoz bozori nainki savdo-sotiq markazi, balki adabiy musobaqalar, she'riyat namoyishlari va ijodiy bahslar o'tkaziladigan ilmiy-ma'naviy maydon sifatida ham tarixda muhim o'rin tutadi.

Ukoz bozorida shoir va notiqalar o'zaro musobaqalashib, birinchi o'rinni qo'lga kiritish uchun barcha ijodiy mahoratini safarbar etar edilar. G'olibni aniqlashda Quraysh qabilasi chiqargan hukm hal qiluvchi hisoblangan. Manbalarda, xususan, "Al-Ag'oniy" asarida quyidagicha qayd etiladi:

"Arablar o'z she'rlarini Quraysh qabilasiga o'qib eshittirar edilar. Ular ma'qul ko'rgan she'rlar qabul qilinsa, ma'qullanmaganlari rad etilar edi. Alqama ibn Abda Tamimiy Quraysh qabilasiga o'zining «هَلْ مَا عَلِمْتَ وَمَا اسْتَوْدَعْتَ مَكْتُومٌ» («Ey Maktum, senga ishonib طَرُبُ فِي الْجِسَانِ قَلْبُ فِي zavqli qalb seni har tomonga olib ketdi») qasidasini o'qib eshittirdi. Bu safar ham ular bir ovozdan ma'qullab: "Ikkinchi zamon she'ri bo'ldi", — dedilar".

Ushbu voqea islomdan oldingi arab jamiyatida she'riyatning qanchalik yuksak maqomga ega bo'lganini, adabiy baholashning muayyan me'yorlarga tayanib amalga

oshirilganini hamda Quraysh qabilasining madaniy hayotdagi markaziy oʻrnini yaqqol namoyon etadi⁵.

Balogʻat ilmi hali mustaqil fan sifatida shakllanmagan davrlarda ham arablar soʻzning nozik qirralarini, maʼno va uslubdagi farqlarni tabiiy ravishda anglay olar edilar. Ular fasohat va balogʻat borasida eng yuksak darajaga yetishgan bir paytda Alloh taolo bashariyatga oʻzining soʻnggi paygʻambari Muhammad Mustafoni sollallohu alayhi vasallam ochiq-ravshan arab tilida yubordi.

U zotga haqqa chorlovchi, toʻgʻri yoʻlga boshlovchi, balogʻatning eng yuksak va tengsiz namunasi boʻlgan Kitob — Qurʼon nozil qilindi. Qurʼonning uslubiy mukammalligi, maʼno chuqurligi va ifoda qudrati arab jamiyatida mavjud boʻlgan badiiy mezonlarning barchasidan yuksak turdi hamda balogʻat ilmining keyingi ilmiy shakllanishi uchun mustahkam nazariy asos vazifasini oʻtadi.

Balogʻatning mustaqil fan sifatida namoyon boʻlishi va takomillashuv jarayoni

Bani Umayya davriga nazar tashlasak, nutq sanʼatining barcha koʻrinishlari gullab-yashnagan davr manzarasi koʻz oldimizda namoyon boʻladi. Siyosiy maydonda Bani Umayya hokimiyati va Hajjoj ibn Yusuf kabi shaxslar mashhur boʻlgan. Shaʼbiy Ziyod haqida shunday deydi: «Minbarda Ziyod singari erkin va ravon soʻzlaydigan notiqni hech qachon eshitmaganman».

Molik ibn Dinor esa Hajjoj haqida quyidagicha fikr bildiradi: «Hajjojning nutqini tinglab, iroqliklar unga nima qilgani va u ularga nima qilganini eslab, toʻsatdan xayolimga uning rostgoʻy ekani, unga iroqliklar zulm qilgan boʻlsa kerak, degan fikr keladi. Chunki u oʻz nutqini xalqqa toʻla va ravon yetkazib bera olar edi».

Shia mazhabi imomlaridan sanalgan Zayd ibn Husayn ibn Ali ham shirinsoʻzligi bilan insonlar eʼtiborini oʻziga tortgan. Izdixomlarda nutq soʻzlovchi notiqlar orasida Sahbon Voil alohida ajralib turgan. U Muoviya roziyallohu anhu oldida nutq soʻzlagan

⁵ Abu-l-Faraj al-Isfahoniy. Al-Agʻoniy (Kitob al-Agʻoniy). 1-jild. Bayrut: Dar al-Kutub al-Ilmiyya, 2008. — 72–74-betlar.

bo‘lib, mazkur nutqining nihoyatda chiroyli bo‘lgani sababli «ash-shavha» deb nomlangan.

Unga o‘xshash notiqlardan yana biri Suhor al-Abdiy edi. Uning nutqidan zavq olgan Muoviya undan: «Sizlar balog‘atni qanday ta’riflaysizlar?» — deb so‘raydi. Suhor: «Balog‘at — iyjozdir», — deb javob beradi. Muoviya: «Iyjoz nima?» — deganida, Suhor: «Iyjoz — insonlarni hayratda qoldirish va xato qilmaslikdir», — deya izohlaydi.⁶

Mazkur misollar Bani Umayya davrida nutq madaniyati va balog‘atga bo‘lgan yuqori ehtiyoj hamda unga nisbatan shakllanayotgan nazariy qarashlarni yaqqol namoyon etadi. Bu jarayon keyinchalik balog‘at ilmining mustaqil fan sifatida qaror topishi uchun muhim zamin yaratgan.

Va’z-nasihat notiqdari g‘oyat bolig‘, ya’ni balog‘atli bo‘lganlar. Ularning eng peshvolari sifatida G‘aylon ad-Dimashqiy, Hasan al-Basriy va Vosil ibn Ato zikr etiladi. Al-Johizning ta’kidlashicha, Abbosiylar davridagi adiblar Hasan al-Basriy va G‘aylonning so‘zlarini yod olar, hatto ular istagan darajadagi mahorat bilan bayon qilishga intilishar edi. Bu holat mazkur shaxslarning nutqi balog‘at namunasi sifatida qabul qilinganini ko‘rsatadi.

Ahmad Mustafo al-Marog‘iy o‘zining “Ulum al-balog‘a” asarida balog‘at ilmining mustaqil fan sifatida shakllanishida asosan uch omil hal qiluvchi o‘rin tutganini ta’kidlaydi. Muallif birinchi omil haqida shunday yozadi:

Abbosiylarning ilk hukmronlik davrida kalom ilmi ulamolari va adabiyot namoyondalari o‘rtasida Qur’oni karim ma’nolarini talqin etish borasida turli ixtiloflar yuzaga keldi. Bahs va munozaralarning keskinlashuvi natijasida turli mazhab va oqimlar maydonga chiqdi.

Muallif fikrini davom ettirar ekan, ushbu jarayon doirasida “as-Sarrofa” oqimining asoschisi Ibrohim an-Nizom tomonidan bildirilgan g‘oya butun islom olamini larzaga solganini qayd etadi. Uning: “Qur’on fasohat va balog‘at namunasi

⁶ Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz. Al-Bayon va at-tabyin. -Bag‘dod, Maktaba al-masno, 1960. -J. 1. -B. 96..

emas, unga o'xshashini arablar ham aytishga qodir", degan da'vosi musulmon ulamolari tomonidan qattiq tanqid ostiga olindi. Bu fikrga qarshi al-Johiz, al-Boqiloniy, Faxriddin ar-Roziy kabi ko'plab ulamolar o'z raddiyalari bilan javob berdilar.

Natijada Qur'onning i'jozi, fasohati va balog'ati masalalari ilmiy jihatdan chuqur tadqiq etila boshlandi hamda balog'at ilmiga ilk nazariy asoslar qo'yildi.

Johiliyat davri she'riyatini qo'llab-quvvatlovchi til va nahv ilmi namoyondalari bilan zamonaviy she'riyat tarafdori bo'lgan shoir va adiblar o'rtasidagi ilmiy bahslar, o'zaro tortishuvlar hamda qarama-qarshiliklar.

Adabiyot arboblari o'rtasida nutqni fasohat va balog'at nuqtai nazaridan ifoda etish usullari borasidagi uslubiy ixtiloflar. Bir guruh adiblar: «Gapning sodda va ravon bo'lishi uning go'zalligidir», — deya ta'kidlasalar, boshqalari esa: «Nutq faqat badiiyatga asoslangandagina go'zal bo'ladi», — degan qarashni ilgari surdilar.

Ana shu va shu kabi omillar balog'at ilmining mustaqil fan sifatida shakllanishiga zamin yaratdi hamda uning ilmiy jihatdan qaror topishiga sabab bo'ldi.⁷

Balog'at ilmi bo'yicha hijratning II asridan boshlab maxsus asarlar bitila boshlangani haqida tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. Ilk bor ilmi bayonga doir alohida asar yozilgani qayd etiladi. Hijriy 206 yilda vafot etgan Abu Ubayda Ma'mur ibn Muso al-Basriyning "Majoz al-Qur'on" asari ilmi bayonning mustaqil fan sifatida shakllanishiga tamal toshini qo'ygan ilk manba sifatida baholanadi.

Abu Ubayda Xalil ibn Ahmadning shogirdi, mashhur nahviy olim Sibavayhning shayxi hisoblanadi. Manbalarda qayd etilishicha, "majoz" atamasini ilmiy istiloh sifatida muomalaga kiritgan shaxs ham aynan Abu Ubayda hisoblanadi. U o'z asarida majozni nazariy jihatdan ta'riflashni maqsad qilmagan bo'lsa-da, Qur'on oyatlaridagi majoziy qirralarni ochib berishga alohida e'tibor qaratgan. Boshqacha aytganda, u oyatlarning sharhi va ta'vili masalalariga jiddiy yondashgan.

Muallif oyatlarda uchraydigan istiora, kinoya, so'zlarni yashirish, takrorlash, oldin yoki keyin keltirish kabi uslubiy jihatlarga ham ahamiyat bergan. Garchi u

⁷ Axmad Mustafo al-Marogi. Ulum al-baloga al-maoniy va a-bayon va al-badit. Al-maktaba al-Ilmiya, 2008.-B. 2-3.

balogʻat ilmida keng qoʻllanadigan “iltifot” atamasini ilmiy muomalaga kiritmagan boʻlsa-da, asarida Qurʻonda kelgan xususiy maʼnolardan umumiy mazmunni anglash yoki, aksincha, umumiy maʼnolar orqali xususiy qirralarni idrok etish zarurligini taʼkidlab oʻtgan.

Ilmi maʼoniy sohasida birinchi boʻlib qalam tebratgan olim kim ekani aniq maʼlum emas. Bu yoʻnalishda koʻplab mualliflar asarlar yozgan. Biroq uslubda yagona, “adiblar sardori” sifatida tanilgan Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johizning (vaf. 255 h.) “al-Bayon va at-tabyin” hamda “Eʼjzul Qurʻon” nomli asarlari mazkur sohada alohida oʻrin tutadi.⁸

Undan keyin Abu Abbos al-Mubarrad “al-Komil” asari bilan, Ibn Qutayba esa “ash-Sheʼr va ash-shuaro” kitobi orqali balogʻat ilmining rivojiga salmoqli hissa qoʻshdilar.

Balogʻatning badiʼ sohasida ilk mustaqil asar yozgan olim xalifa Abdulloh ibn al-Muʼtazz ibn al-Mutavakkil al-Abbosiyydir (vaf. 296 h.). Unga qadar shoirlar ilmi badiʼning ayrim turlarida ijod qilgan boʻlsalar-da, mazkur sohani tizimli tarzda oʻrganib, ilmiy shaklga solish aynan Abdulloh ibn al-Muʼtazzga nasib etdi. U badiiy tasvir vositalarini chuqur tahlil qilib, ularning oʻnta navini jamladi.

Uning asrdoshi Qudoma ibn Jaʼfar bu navlarni oʻrganib chiqib, yigirmata turni aniqladi. Ularning yettitasi Abdulloh tuzgan navlarga muvofiq kelsa, qolgan oʻn uchitasi yangi hisoblanar edi. Bu holat Abdulloh ibn al-Muʼtazzni yanada izlanishga undadi va u qoʻshimcha yetti navni kashf etdi. Shu tariqa, ilmi badiʼning turlari jami oʻttiztaga yetdi.

Darhaqiqat, Abbosiylar davriga kelib balogʻat ilmi jadal rivojlandi. Chunki arab jamiyatida shahar va qishloq hayoti barqarorlashib, ijtimoiy tafakkur ham tobora sayqallasha boshladi. Xorijiya, shia, zubayriya, umaviya, murjia, jabariya, qadariya va muʼtazila kabi siyosiy hamda aqidaviy firqalarning koʻpayishi siyosat va eʼtiqod

⁸ Homid Avniy. "Al-Minhoz al-vozix". Al-Azhar, 1991 y. -B. 8-12.

masalalari atrofidagi bahslarni kuchaytirdi. Bu esa balogʻat va sheʼriyatning rivoji uchun tabiiy ilmiy-ijtimoiy muhitni shakllantirdi.

Ayni shu davrda sheʼriyatda ikkinchi yoʻnalish — maddohlik shakllanib chiqdi. Maddohlikning jadal surʻatda rivoj topishiga xalifalar, hokimlar va saxovatli insonlarning koʻpligi sabab boʻldi. Hokimlar maddohlarning sheʼrlarini mukofotsiz qoldirmaganlari bois, ular oʻrtasida kuchli raqobat yuzaga keldi. Mukofot umidida maddohlar sheʼrlarga shunday sayqal berar edilarki, ular qalbni maftun etib, tinglovchining qulogʻini ham, ruhini ham oromga solar edi.

Bunday shoirlar safi kengaygan sari, ular oʻzlari madh etayotgan shaxslar eshiklari oldida bir-birlariga duch kelib, sheʼrlarining shakl-shamoiili va mazmun-mohiyatini tanqid qila boshladilar. Ana shu raqobat muhiti ham balogʻat qoidalarining chuqurlashuvi va badiiy meʼyorlarning takomillashuviga kuchli turtki boʻldi.

Bu davrga kelib, islomdan oldingi davrda mavjud boʻlgan Ukoz bozorining oʻrnini Basradagi Mirbad va Kufadagi Kunosa bozorlari egalladi. Ushbu ikki maskanni yirik adabiy maydon yoki katta teatr sahnasiga qiyoslash mumkin. Bu yerga shoirlar oʻzlarining eng yaxshi sheʼrlarini xalqqa oʻqib eshittirish uchun turli joylardan kelganlar. Shoirlarning eng yaxshi sheʼrlari xalq olqishiga sazovar boʻlgan. Shoirlar bir-birlarini tanqid ostiga olib sheʼrlar oʻqib eshittirganlaridan soʻng, ularning nukson va kamchiliklari aytib oʻtilgan.⁹

Ayni shu davrda nasr va sheʼriyatning jadal rivojlanishiga fors zotli adiblarning arab tilini mukammal oʻzlashtirgani va uni ona tilidek qabul qilib, shu tilda sheʼr aytib, nutq soʻzlagani katta taʼsir koʻrsatdi. Bu asrda nasr oʻzining yuksak taraqqiyot bosqichiga koʻtarildi. Chunki koʻplab chet tillardagi adabiy, siyosiy va falsafiy asarlar arab tiliga tarjima qilindi.

Ibn al-Muqafʼa (vaf. 143/760) fors tilidan turli siyosiy, adabiy va tarixiy asarlarni, shuningdek, Arastu merosiga mansub qator asarlarni arab tiliga oʻgirdi. Shu jarayondan keyin tarjima faoliyatiga katta eʼtibor qaratildi va tarjima ishlariga

⁹ Abu al-Faraj al-Isbahonii. Kitob al-Agoniy. - Misr, Dor ash-shab. 10-jild. -B. 132.

ixtisoslashgan “Dor al-hikma” o‘z faoliyatini boshladi. Suriya va boshqa mintaqalardan kelgan tarjimonlar yunon, fors va hind tillaridagi ilmiy-adabiy merosni arab tiliga tarjima qilishga kirishdilar.

Ushbu jarayonlar natijasida arab nasri va she’riyati mazmunan boyidi, usluban takomillashdi hamda balog‘at ilmining ilmiy asoslari yanada mustahkamlandi.

Bu jarayon arab jamiyati hayotini tubdan o‘zgartirdi. Zero, sivilizatsiya turli xalqlar madaniyati bilan uyg‘unlashib bordi, arab tili esa qadimgi xalqlardan qolgan madaniy merosni o‘zida mujassam etuvchi asosiy vositaga aylandi. Ibn al-Muqaf’a mazkur davrda “al-muvallad” nomi bilan tanilgan yangi abbosiylar uslubining shakllanishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Ushbu uslub har bir lafzni tanlashda nihoyatda ehtiyotkor bo‘lishni, ma’no-mohiyatni ravshan va aniq ifoda etishni talab qilar edi.

Ibn al-Muqaf’a balog‘at ilmini bir necha qismlarga ajratdi. Jumladan, tinglash, ishora, kalom va boshqalar. Kalom sohasini esa dalil keltirish, munozara, tortishuv, javob, she’r, kalomdagi saj’ hamda nutq kabi turlarga bo‘ldi. U mazkur sohalarning barchasida iyjoz, ya’ni qisqalikni asosiy shart sifatida belgiladi.

Ibn al-Muqaf’a har bir notiq nutqining avvalida o‘z maqsadini ochiq bayon qilishi lozimligini, shuningdek, nutqni she’r bilan boshlash maqbul ekanini ta’kidlagan. Keyinchalik badi’ ilmi bilan shug‘ullangan olimlar nutq boshida maqsadni ravshan ifoda etish usulini “husni istihlol” (chiroyli kirish) deb atadilar.

Shu bilan birga, Ibn al-Muqaf’a iyjoz (gapni qisqa qilish) hamda itnob (gapni cho‘zish)ning har biri o‘z o‘rniga ega ekanini uqtirib, quyidagicha xulosa chiqaradi:

«Gap qisqa qilinishi lozim bo‘lgan joyda uni cho‘zish, gapni batafsil bayon qilish zarur bo‘lgan o‘rinlarda esa uni qisqartirish notiqlik san’atiga ziddir».

Devon tartib beruvchilar ushbu uslubdan doimo foydalanganlar. Chunki ular balog‘at ilmini mukammal biluvchi shaxslar orasidan maxsus tanlab olingan edi. Ular o‘z asarlarini xalifa va ayrim vazirlarga taqdim etish orqali o‘z iqtidorlarini namoyon qilganlar. Devon ahli nafaqat asl arab madaniyatidan, balki yunon falsafasidan ham ma’naviy va ilmiy ozuqa olgan. Ayniqsa, so‘zlarning etimologiyasiga katta e’tibor qaratilgan.

Al-Johiz bu haqda shunday deydi: «Boliqʻlar doimo bir-birlaridan koʻr-koʻrona andoza olishdan va isteʼmoldan chiqib qolgan soʻzlarni qoʻllashdan oʻzlarini tiyganlar; quloqqa xush keladigan, qalbga tasalli beradigan soʻz va maʼnolarni tanlaganlar».¹⁰

Shubhasiz, shoir va notiqlar xalifa hamda mansabdor shaxslar huzurida oʻz mavqeini mustahkamlash maqsadida sheʼr va nutqlarining mazmun-mohiyatiga alohida eʼtibor qaratganlar. Ularda mansabdorlarni ulugʻlashga boʻlgan intilish doimo yuqori boʻlgan. Natijada ayrim notiq va shoirlar yuqori mansablarga koʻtarilganlar. Shunday shaxslardan biri Jaʼfar ibn Yahyo al-Barmakiydir. U fasohat va balogʻatda tengsiz boʻlgan. Al-Jahshiyor bu haqda quyidagicha yozadi: «Jaʼfar balogʻatli yozuvchi edi. Agar u biror hujjatga imzo cheksa, oʻsha imzodan nusxalar olinib sotilar, uning balogʻat asosida bildirgan fikrlari esa yuksak diqqat bilan oʻrganilar edi».

Hijriy II–III asrlarga kelib, shoir va yozuvchilardan tashqari, balogʻat va bayon ilmidan taʼlim beradigan ikki toifa shakllandi. Ularning birinchisi mutakallimlar guruhi boʻlib, yoshlarga nutq madaniyati va munozara sanʼatidan saboq berganlar. Ikkinchi toifa vakillari esa tilshunoslar boʻlib, ular arab tili grammatikasini oʻrgatish jarayonida qadimgi sheʼrlardan foydalanish bilan bir qatorda, mazkur matnlarni ham grammatik, ham balogʻat nuqtai nazaridan tahlil qilganlar.

Ana shu tarzda tilshunos olimlar balogʻat ilmining shakllanishiga salmoqli hissa qoʻshdilar va natijada hijriy II asrga kelib bu sohada muayyan ilmiy tizim yuzaga keldi.

Jamiyatda hech qanday hodisa obʼektiv zaruratsiz sodir boʻlmaydi. Balogʻat ilmining shakllanishi va mustaqil fan sifatida ajralib chiqishi ham aynan ana shunday ijtimoiy va ilmiy ehtiyoj tufayli yuz berdi. Nahv ilmining paydo boʻlishiga arab boʻlmagan musulmonlarning Qurʼoni karimni toʻgʻri oʻqish zarurati turtki boʻlgan boʻlsa, balogʻat ilmining vujudga kelishiga Qurʼon maʼnolarini teran anglash, uni tushunishda yuzaga keladigan turli ixtiloflarning oldini olish ehtiyoji sabab boʻldi.

Arab ilmiy muhitida bu fan IX asrda (hijriy II asrda) shakllana boshladi va dastlab “ilm al-badi” nomi bilan yuritildi. XIII asrga (hijriy VI asrga) kelib esa mazkur

¹⁰ Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz. Al-Bayon va at-tablin, -Bagʻdod, Maktaba al-masno, 1960. 4-jild. -B. 24.

fan o'z takomiliga yetdi. U o'zaro bir-birini to'ldiruvchi uch tarmoq — ilmi ma'oniy, ilmi bayon va ilmi badi'dan iborat mukammal ilmiy tizim sifatida qaror topdi.

Ilmi ma'oniya arabiy lafzlarning qo'llanish usullari, ayrim so'zlarning nutqdagi o'rni va ma'no yuki haqida bahs yuritiladi. Ilmi bayon esa belgilangan maqsadni ifoda etish va uni adresatga samarali yetkazishda, shuningdek, ta'sirchanlikni oshirishda so'zlarning haqiqiy va ko'chma ma'nolaridan foydalanish usullarini o'rganadi. Ilmi badi' esa ilmi ma'oniy va bayon qoidalariga tayangan holda, nutqda yoki yozma matnda ifoda etiladigan maqsadlarni chiroyli, badiiy, kofiyali, jarangli hamda so'zlarni o'zaro uyg'un tarzda joylashtirish usullari haqida bahs qiladi.

Boshqa ilmlarda bo'lgani kabi, balog'at ilmining rivojlanishida ham Movarounnahr va Xurosondan yetishib chiqqan olimlarning xizmatlari beqiyos ekanini alohida ta'kidlash lozim. Balog'at ilmining tarixini chuqur o'rganib, bu xususda salmoqli risola yozgan misrlik olim Shavqiy Zoyf mazkur fan taraqqiyotiga bobokalonimiz Mahmud az-Zamaxshariy qo'shgan hissani atroflicha tahlil qiladi. Xususan, u "al-Kashshof" asarida ilmi ma'oniy va ilmi bayonning ahamiyatiga doir fikrlarni quyidagicha xulosalaydi:

Ayonki, az-Zamaxshariy ilmi ma'oniy va ilmi bayonni ilohiy Tanzilni tafsir qilishni istagan har bir kishi uchun eng muhim va zarur vosita, deb hisoblaydi.¹¹

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Al-Iydoh fi ulumil balog'a. Muhammad Abdulmun'im al-Xo'fajiy tahqiq qilgan nusxasi. Bayrut. Darul jayl.1949. 1-juz. -B. 14. Al-Xatib al-Qazvinii.
2. Al-Bayon va at-tabyin. -Bag'dod, Maktaba al-masno, 1960. -J. 1. -B. 96. Abu Usmon Amr ibn Bahr al-Johiz.
3. Ulum al-baloga al-maoniy va a-bayon va al-badit. Al-maktaba aui-ulomila, 2008.-B. 2-3. Axmad Mustafo al-Marogi.
4. "Al-Minhoj al-vozix". Al-Azhar, 1991 y. -B. 8-12. Homid Avniy.

¹¹ Shavqiy Zof. Al-Balog'a tatovvur na tarix. -Misr, Qora, 1995. -B. 225.

5. Kitob al-Agoniy. - Misr, Dor ash-shab. 10-jild. -B. 132. Abu al-Faraj al-Isbahonii
6. <https://www.aldiwan.net/>